

## O'ZBEKISTONDA BOZOR IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI

**Yakubov Sanatbek Ravshanbekovich**

Ma'mun universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasida katta o'qituvchisi E-mail:

yakubov\_sanatbek@mamunedu.uz

**Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich**

Ma'mun universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasida dots.v.v E-mail: niyozmetov\_doniyor@mamunedu.uz

**O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich**

Ma'mun universiteti Iqtisodiyot kafedrasida o'qituvchisi E-mail: uurinboyev@mamunedu.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari, bosqichlari hamda o'ziga xos jihatlari tahlil etilgan. Vashington konsensusi, institutsional iqtisodiyot nazariyasi va tranzit iqtisodiyot modellari (Sachs, Kornai, Stiglitz) asosida O'zbekistonning o'tish tajribasi ko'rib chiqilgan. 2016–2023-yillar davomidagi iqtisodiy islohotlar natijasida YaIM o'sishi, xorijiy investitsiyalar va kichik biznes rivojlanishi dinamikasi empirik usullarda baholangan.

**Kalit so'zlar:** bozor iqtisodiyoti, tranzit iqtisodiyot, iqtisodiy islohotlar, YaIM o'sishi, institutsional o'zgarishlar, xorijiy investitsiyalar, raqobat muhiti.

**Аннотация:** В данной статье анализируются теоретические основы, этапы и специфические аспекты формирования и развития рыночной экономики в Узбекистане. На основе Вашингтонского консенсуса, теории институциональной экономики и моделей транзитной экономики (Sachs, Kornai, Stiglitz) рассмотрен переходный опыт Узбекистана. С помощью эмпирических методов оценена динамика роста ВВП, иностранных инвестиций и развития малого бизнеса в результате экономических реформ 2016–2023 годов.

**Ключевые слова:** рыночная экономика, транзитная экономика, экономические реформы, рост ВВП, институциональные изменения, иностранные инвестиции, конкурентная среда.

**Abstract:** This article analyzes the theoretical foundations, stages, and specific aspects of the formation and development of a market economy in Uzbekistan. Drawing on the Washington Consensus, institutional economics theory, and transitional economy models (Sachs, Kornai, Stiglitz), Uzbekistan's transition experience is examined. Using empirical methods, the dynamics of GDP growth, foreign investment, and small business development resulting from the 2016–2023 economic reforms are assessed.

**Keywords:** market economy, transitional economy, economic reforms, GDP growth, institutional changes, foreign investment, competitive environment.

### KIRISH

Jahon iqtisodiyoti tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bozor iqtisodiyotiga muvaffaqiyatli o'tgan barcha mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishining asosida kuchli

institutsional islohotlar, xususiy mulkni himoya qilish va raqobatli muhitni shakllantirish yotganini ko'ramiz.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish muammosi zamonaviy rivojlanish iqtisodiyotining markaziy masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, sobiq sovet davlatlari uchun bu muammo alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ularda markazlashgan rejalashtirishdan bozor mexanizmiga o'tish jarayoni juda murakkab va ko'p qirrali tarzda kechgan.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish 1991-yildan boshlangan bo'lib, mamlakat o'zining bosqichma-bosqich islohot modelini shakllantirgan. 2016 - yildan boshlangan yangi islohotlar davri esa yanada jadal o'zgarishlarni boshlab berdi: valyuta bozorini erkinlashtirish, soliq islohotlari, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va xorijiy investitsiyalar uchun qulay muhit yaratish shular jumladandir.

Asosiy qism. Bozor iqtisodiyotiga o'tish nazariyasining asosini J. Sachs (1992) ishlab chiqqan "shok terapiyasi" va O. Blanchard (1997) taklif etgan bosqichma-bosqich o'tish modelidan iborat [1, 2]. Sachs yondashuviga ko'ra, narxlarni liberallashtirish, xususiylashtirish va makroiqtisodiy barqarorlashtirish bir vaqtda amalga oshirilishi lozim. Biroq amaliyot shuni ko'rsatdiki, ushbu yondashuv institutsional tayyorgarliktsiz amalga oshirilganda ijtimoiy qiyinchiliklarga olib kelgan.

J. Kornai (1992) "yumshoq budjet cheklavlari" kontseptsiyasini kiritdi: sobiq socialistik mamlakatlarda davlat korxonalari moliyaviy intizomga rioya qilmagan, chunki davlat ularni doimo qo'llab-quvvatlagan [3]. Bozor iqtisodiyotiga muvaffaqiyatli o'tish uchun "kuchli budjet cheklavlari" tizimini joriy etish, ya'ni korxonalar o'z moliyaviy natijalariga o'zlari javob berishi, zaruriy shart sifatida belgilandi.

J. Stiglitz (2002) "Globallashtirish va uning noroziliklari" asarida Washington konsensusining cheklovlarini tanqid qilib, institutsional salohiyatni rivojlantirmasdan turib narx liberalizatsiyasi va xususiylashtirish samarasiz bo'lishini isbotladi [4]. Uning yondashuvi O'zbekistonning bosqichma-bosqich islohot modelini ilmiy asoslashda muhim o'rin tutishi mumkin.

D. North (1990) institutlar nazariyasiga ko'ra, bozor iqtisodiyotining samarali ishlashi rasmiy (qonunlar, me'yorlar) va norasmiy (madaniyat, an'analar) institutlar majmuasiga bog'liq [5]. O'zbekistonda ham rasmiy institutlar islohoti (soliq kodeksi, tadbirkorlik qonunchiligi, sud-huquq tizimi) va norasmiy normalarning o'zgarishi parallel shaklda olib borilmoqda.

Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki tadqiqotlari (2022–2023) shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tranzit iqtisodiyotlar orasida islohotlar sur'ati bo'yicha yuqori o'rinlardan birini egallaydi [6, 7]. Xususan, "Doing Business" indeksida O'zbekiston 2016-yildagi 87-o'ringandan 2020-yilda 69-o'ringa ko'tarildi. Ushbu ko'rsatkich biznes muhitining sezilarli darajada yaxshilanganini tasdiqlaydi.

Valyuta bozorini erkinlashtirilishi (2017) O'zbekiston iqtisodiyotida tub burilish yasadi. Milliy valyutaning erkin konvertatsiyasi xorijiy investitsiyalar uchun asosiy to'siqni bartaraf etdi. UNCTAD (2023) ma'lumotlariga ko'ra, ushbu islohatdan so'ng to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 1,73 mlrd dollardan 2,53 mlrd dollargacha oshdi [8].

Kichik va o'rta biznes subyektlari O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining asosiy bo'g'iniga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (2023)

ma'lumotlariga ko'ra, Kichik va o'rta biznes vakillarning YaIM dagi ulushi 2021-yilda 54,9 foizni tashkil etgan. Bandlikdagi ulushi esa 86,0 foizni tashkil etgan [9].

Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) va maxsus iqtisodiy zonalar O'zbekistonda tarkibiy islohotlarning muhim vositasiga aylangan. Navoi EIZ, Angren EIZ va boshqa zonalar raqobatbardosh sanoat klasterlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. T. Farole va G. Akinci (2011) EIZ samaradorligi uchun investitsiya muhiti sifati, mehnat bozori qoidalari va mustaqil boshqaruv hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi [10].

Yuqoridagi nazariy yondashuvlar va empirik ma'lumotlar asosida O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining rivojlanish modelini qurish mumkin. Ushbu model uch asosiy yo'nlishdan iborat: harakatlantiruvchi kuchlar, o'tish mexanizmlari va natijalar.

1-chizma. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining rivojlanish modeli

#### HARAKATLANTIRUVCHI KUCHLAR O'TISH MEXANIZMLARI NATIJALAR

- Siyosiy irodaning mavjudligi
- Tashqi iqtisodiy integratsiya
- Texnologik o'zgarishlar
- Xalqaro tashkilotlar yordami
- Inson kapitali o'sishi
- Institutsional islohotlar
- Narxlarni liberallashtirish
- Xususiyashtirish jarayoni
- Valyuta erkinlashtirish
- Soliq tizimi islohoti
- EIZ va klasterlar
- Raqamli transformatsiya
- YaIM barqaror o'sishi
- Xorijiy investitsiyalar oshishi
- Kichik va o'rta biznes subyektlari ulushining ortishi
- Eksport diversifikatsiyasi
- Bandlik darajasi yaxshilanishi
- Ijtimoiy turmush darajasi

Xulosa va tavsiyalar. Umuman olganda, yuqorida tahlil qilingan modelning asosiy g'oyasi shundaki, bozor iqtisodiyotiga o'tish o'z-o'zidan emas, balki harakatlantiruvchi kuchlar va o'tish mexanizmlarining kompleks ta'sirida amalga oshadi. O'zbekiston uchun eng muhim vazifa — mavjud harakatlantiruvchi kuchlardan foydalanib, o'tish mexanizmlarini samarali boshqarish va shu orqali barqaror ijobiy natijalarga erishishdir.

Amalga oshirilgan nazariy va empirik tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining rivojlanishi ko'p omilli, ko'p bosqichli va o'zaro bog'liq jarayondir. Sachs shok terapiyasidan farqli ravishda O'zbekiston bosqichma-bosqich islohot modelini tanlagan va bu yondashuv ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolish nuqtai nazaridan samarali bo'lgan.

Nazariy qarashlarga ko'ra — Kornai, North, Stiglitz yondashuvlariga asoslanib — bozor iqtisodiyotining chuqurlashishi faqat narx liberalizatsiyasi bilan emas, balki institutlarning sifati, raqobat muhiti va inson kapitalining rivojlanishi bilan belgilanadi.

Shu boisdan O'zbekiston uchun quyidagi strategik tavsiyalar dolzarb ahamiyat kasb etishi mumkin:

Birinchidan, huquqiy muhitni mustahkamlash — mulk huquqini himoya qilish, shartnoma majburiyatlarini ta'minlash va sud tizimini mustaqillashtirish investitsiya muhitini yaxshilashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyotga o'tishni yanada tezlashtirish zarur: elektron hukumat, raqamli to'lov tizimlari va IT-sektorni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning samaradorligini oshirish mumkin. Uchinchidan, Kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ayniqsa moliyaviy xizmatlar va eksport imkoniyatlariga kirish yo'llarini yanada kengaytirish tavsiya etiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sachs, J. (1992). The economic transformation of Eastern Europe: The case of Poland. *Economics of Planning*, 25(1), 5-19.
2. Blanchard, O. (1997). *The Economics of Post-Communist Transition*. Oxford University Press, Oxford.
3. Kornai, J. (1992). *The Socialist System: The Political Economy of Communism*. Princeton University Press.
4. Stiglitz, J. (2002). *Globalization and Its Discontents*. W.W. Norton & Company, New York.
5. North, D.C. (1990). *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge University Press.
6. IMF. (2023). *Republic of Uzbekistan: Staff Concluding Statement of the 2023 Article IV Mission*. Washington: IMF.
7. World Bank. (2023). *Uzbekistan Economic Update: Building on Reforms*. Washington: World Bank Group.
8. UNCTAD. (2023). *World Investment Report 2023: Investing in Sustainable Energy for All*. Geneva: United Nations.
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat milliy statistika qo'mitasi. (2023). *O'zbekiston raqamlarda 2022: statistik to'plam*. Toshkent.
10. Farole, T., & Akinci, G. (Eds.). (2011). *Special Economic Zones: Progress, Emerging Challenges, and Future Directions*. World Bank, Washington D.C.
11. O'rinboyev, U. (2026). AGROKLASTERLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING EKONOMETRIK MODELLARI. *MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT*, 4(4).
12. Ravshanbekovich, Y. S. A. (2025). YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLAR FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI. *Labor economics and human capital*, 4(3), 186-198.
13. Niyozmetov, D. (2025, January). FOREIGN EXPERIENCE OF COMMERCIAL BANKS IN THE SECURITIES MARKET. In *International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies* (Vol. 13, pp. 59-60).

14. Шеров, А. Б., & Юсупов, Ш. Б. (2021). Зарубежный опыт эффективной организации денежно-кредитной политики в стране. *Scientific progress*, 2(1), 605-609.
15. Aarthi, S., Ravikumar, R. N., Balakrishnan, R., Pavithra, K., & Jumaniyozov, F. (2026). Blockchain for Seamless and Transparent Smart Hospitality Operations. In *Smart Operations and Enhancing Guest Experience in the Hospitality Industry* (pp. 187-218). IGI Global Scientific Publishing.
16. Garia, P., Mamadiyarov, Z., Jumaniyozov, F., Deogaonkar, A., Vichoray, C., & Mittal, A. (2025, August). Comparative Analysis of Random Forest and ANN Models for Urban Air Quality Index Prediction. In *2025 3rd International Conference on Sustainable Computing and Data Communication Systems (ICSCDS)* (pp. 238-243). IEEE.
17. Jumaniyozov, F. (2024). Opportunities to create new jobs in the context of the transition to a 'green' economy. *University Research Base*, 264-267.
18. Jumaniyozov, F. (2025). Xudarganov T. Hududlar iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishining xorij tajribasi. *Молодые ученые*, 3, 18.
19. Jumaniyozov, F. (2025). Mintaqada barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yashil mehmonxonalar ahamiyati. *University research base*, 272-275.
20. Sherjonov, S., Axmedova, D., Masharipova, X., Niyozmetov, D., & Jumaniyozov, F. (2025, November). The impact of CO2 emissions and renewable energy on economic growth in Uzbekistan: A VECM analysis. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3331, No. 1, p. 030024). AIP Publishing LLC.
21. Sabbir, S., Karmakar, S., Ghosh, A., Jumaniyozov, F., Akhmedov, S., Aziz, M. T., & Mahmud, T. (2025, July). A Novel Hybrid Approach for Load Forecasting: Multi-Head Attention Integrated LCG Model with Statistical Outlier Management. In *2025 International Conference on Quantum Photonics, Artificial Intelligence, and Networking (QPAIN)* (pp. 1-6). IEEE.